

“ZARAUTSOY QOYATOSH RASMLARI” ARXEOLOGIK YODGORLIGINING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI

Pardayeva Shaxriniso Turayevna

*Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi
ilmiy kotibi*

Annotatsiya: *Mazkur maqola ilk tasviriy san’atning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan maskan Zarautsoy qoyatosh rasmlarining hozirgi kundagi saqlanish holati, hududni turizm maskaniga aylantirishga doir amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan qisqacha yozildi.*

Kalit so‘zlar: *Zarautsoy, dara, kamar, qoyatosh, ibtidoiy davr, mezolit davr, bronza, sur’at, g‘or, ekspeditsiya, obyekt, koordinata, yodgorlik, antropogen ta’sir va hokozolar.*

Zarautsoy qoyatosh rasmlari O‘zbekiston hududining Hisor tog‘ tizmasining janubiy-g‘arbidagi Ko‘xitang tog‘ning yon bag‘rida, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani joylashgan. Zarautsoy g‘oridagi tasvirlar ilk bor tasviriy san’atning paydo bo‘lishida va rivojlanishida ilk qadamlar bo‘ldi. Zarautsoy g‘ori qadimiy ajdodlar yaratib qoldirgan bu asori- atiqalarni o‘z bag‘rida ming yillardan buyon asrab kelayotgan maskandir. Bu maskan Zarautsoy va Zaraut kamar nomlari bilan yuritiladi. Mahalliy aholi Zaraut rasmlari chizilgan g‘orlarni mahalliy tilda kamar deb atashadi. Shundan Zaraut kamar nomi paydo bo‘lgan.

Zarautsoy suratlari dastlab Lomayev tomonidan o‘rganilgan. Keyinchalik Parfyonov (O‘lkashunoslik muzeyining birinchi direktori) raxbarligidagi ekspeditsiya ish boshlagan. Zarautsoy qoyalarida chizilgan 200 dan ortiq ibtidoiy rasmlarning hammasi bir vaqtda chizilmagan, ba’zi tasvirlar bir-birining ustiga qalashib ketganligi ham buni tasdiqlaydi. Zarautsoydagi dastlabki tasvirlar mezolit davrining oxirlariga oid bo‘lib taxminan bundan 10 ming yillar muqaddam chizilgan. Qoyadagi keyingi tasvirlar bronza davriga oid bo‘lib yani miloddan avvalgi 3-2 ming yillikning maxsulidir. Zarautsoyda topilgan tasvirlar mamlakatimizda eng qadimiy rasmlar majmuasi xisoblanadi.

“Zarautsoy” qoyatosh rasmlari arxeologik yodgorliklar ro‘yxatiga olingan. Respublika toifasidagi obyektlar ro‘yxatiga kiritilgan. Yer uchastkasining kadastir pasporti mavjud, joylashuv koordinatasi olingan. Obyektning mulk

egalik huquqi davlat mulki tasarrufida. Kadastr hujjati 19;13;09;01;04;0010. Yer uchastkasining maydoni 2022.36 m².

“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi balansida bo‘lgan, Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida joylashgan “Zarautsoy qoyatosh rasmlari” tushirilgan arxeologik yodgorligiga antropogen ta’sir natijasida qisman zarar yetgan, turli buyumlar (tosh, metal parchalari) bilan rasmlar ustiga chizilgan. Yodgorlikni tabiiy ta’sirlardan saqlash bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmaganligi sababli yomg‘ir suvlari tekkan joylarda qisman o‘pirilish va zax chiqqan holatlar kuzatilgan. Hozirgi kunda qoyatosh rasmlari atrofida muhandislik kommunikatsiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalari mavjud emas. Obyektning texnik holati qoniqarli. Obyektga muhofaza belgilari qo‘yilgan. Surxon davlat qo‘riqxonasi inspektorlari tomonidan yodgorlikni qo‘riqlash ishlari olib borilyabdi. Obyektda restavratsiya, konservatsiya ishlari olib borilmagan, tabiiy holatda. Qoyatosh rasmlariga olib boruvchi piyoda yo‘llar bo‘lib, u ham qoyatoshga boruvchilarga ancha qiyinchiliklar tug‘diradi. Hozirda qoyatoshga olib boruvchi yo‘llarni yaxshilash va kengaytirish maqsadida “Zarautsoy” MCHJ direktori tadbirkor Baxtiyor Janayev rahbarligida amaliy ishlar olib borilmoqda, yo‘llar yaxshilanmoqda. Qoyatoshga boruvchilar uchun nafaqat yo‘llar balki tunab qolishlari va dam olishlari uchun 10 dan ortiq qora uy “O‘tov” lar ham tikilgan. Bularning barchasi qoyatoshga boruvchilar uchun qulayliklar yaratadi.

Zarautsoy qoyatosh rasmlari madaniy turizm uchun katta ahamiyatga ega. Surxondaryo viloyatiga tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun bu joy qadimiy san‘at, tarix va tabiatni birgalikda his qilish imkonini beradi. Ayniqsa, tarix va arxeologiyaga qiziqqanlar uchun bu noyob obyekt katta qiziqish uyg‘otadi. Zarautsoy qoyatosh suratlari – O‘zbekistonning bebaho tarixiy-madaniy boyligidir. Bu ibtidoiy san‘at namunalarining saqlanishi, o‘rganilishi va xalqaro miqyosda targ‘ib etilishi nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun insoniyat tarixini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Uni asrab-avaylash har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Xolmirzaev. Zarautsoy tilsimlari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2003.
2. I.T.Botirov. Surxondaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyi tarixi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent-2011.
3. WWW.google.uz

